

**MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA
XAVOTIRLANISHNING XORIJ VA O'ZBEK PSIXOLOGIYASIDA
TADQIQ ETILISHI**

Abduxakimova Sevara Sherali qizi

Xalqaro Nordik universiteti, Pedagogika va psixologiya
yo'nalishi magistranti

abduxakimovasevara1508@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Xavotirlanishning kelib chiqish sabablari, uning bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, bolalikdagi xavotirni aniqlash va kamaytirishga qaratilgan psixologik yondashuvlar bayon etilgan. Jahon va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari solishtirilib, bolalarda xavotirni aniqlashda zamonaviy metodikalar qo'llanilishi muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: xavotirlanish, maktabgacha yosh, psixologik xususiyatlar, ruhiy salomatlik, bog'lanish nazariyasi, bolalik psixologiyasi.

**ИССЛЕДОВАНИЕ ТРЕВОЖНОСТИ У ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В ЗАРУБЕЖНОЙ И
УЗБЕКИСТАНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ**

Абдухакимова Севара Шерали кизи

Международный Северный Университет, Педагогика и Психология

Студент магистратуры

abduxakimovasevara1508@gmail.com

Аннотация: в статье анализируются психологические особенности тревожности у детей дошкольного возраста. Описаны

причины возникновения тревожности, ее влияние на личностное развитие детей, а также психологические подходы к выявлению и снижению тревожности в детском возрасте. Были сопоставлены научные взгляды международных и отечественных исследователей, а также подчеркнута важность использования современных методов выявления тревожности у детей.

Ключевые слова: *тревожность, дошкольный возраст, психологические особенности, психическое здоровье, теория привязанности, детская психология.*

RESEARCH OF ANXIETY IN PRESCHOOL CHILDREN IN FOREIGN AND UZBEKISTAN PSYCHOLOGY

Abdukhakimova Sevara Sherali kizi

International Nordic University, Master's student in Pedagogy and Psychology

abdukhakimovasevara1508@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the psychological characteristics of anxiety in preschool children. The causes of anxiety, its impact on the personal development of children, as well as psychological approaches aimed at identifying and reducing anxiety in childhood are described. The scientific views of world and local researchers are compared, and the importance of using modern methods in identifying anxiety in children is emphasized.*

Keywords: *anxiety, preschool age, psychological characteristics, mental health, attachment theory, childhood psychology.*

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligini ta'minlash muhim ijtimoiy vazifa sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu yosh davrida rivojlanayotgan xavotirlanish holatlari bolaning kelajakdagi hissiy, ijtimoiy va kognitiv rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyoda bolalar va o'smirlar orasida ruhiy salomatlik muammolari keng tarqalgan bo'lib, bu muammolarning 10–20 foizi aynan maktabgacha yoshda boshlanishi mumkin. 2021-yilgi JSST hisobotiga ko'ra, dunyoda har 7 nafar boladan 1 nafari (taxminan 86 million bola) ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda, shundan muhim qismi – xavotirlanish buzilishlaridir.

Psixologiya fanida shaxsdagi xavotir muammosini tadqiq etgan bir qator yetakchi olimlar, jumladan R.S.Nemov o'z tadqiqotlarida ta'kidlashicha xavotirlanish – bu shaxsning individual psixologik xususiyati bo'lib unga psixologik xavf tug'dirishi mumkin. Hayotiy vaziyatlarda ortib borayotgan xavotirlanish va xavotirlanish xolatiga tushib qolish tendensiyasida namoyon bo'ladigan xarakter xususiyat muammolar, muvaffaqiyatsizliklar yoki umidsizlikka aylanadi.¹

Y.M.Antonyan fikricha xavotirlanishning asosiy sabablaridan biri bolaning ishonchsizligini nazarda tutadi. U bola ishonchsizligini xavotirni his qilganda, bolaning ota-onasi tomonidan rad etilgani natijasida yuzaga kelishi mumkinligini ko'rib chiqadi. Ta'kidlanishicha, agar bolaning hissiy ehtiyojlari qondirilmasa,

¹ Khasnova S.G. Abroad study about the problem of concern in preschool children // *Frontline Social Sciences and History Journal*. ISSN: 2752-7018. 28.02.2022. – P. 60–65. SJIF Impact Factor: 5.376.

umuman odamlar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoji shakllanmasligi begonalashishga, atrof-muhitni rad etishga, dunyodan xavf kutishga olib keladi.²

R. Temml, M. Dorki va V. Amen tomonidan ishlab chiqilgan “Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash testi” maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish darajasini baholashda keng qo'llaniladi. Ushbu metodika bolalarning xavotirlanish darajasini aniqlash va ularni tegishli ravishda qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.³

Yuliya Lvovna Xanina tomonidan Ch.D. Spilbergerning xavotirlanish testi rus tiliga moslashtirilgan va bu test rusiyzabon aholining xavotirlanish darajasini o'lchashda qo'llaniladi.⁴

Melanie Klein, o'zining psixoanalitik yondoshuvini ishlab chiqqan, bolalarning psixologik rivojlanishini va xavotirlanish holatlarini tahlil etgan. Uning tadqiqotlari, ayniqsa, bolaning psixologik jarayonlari, ota-onalar bilan aloqasi va xavotirlanishning bola psixikasiga qanday ta'sir qilishi haqida chuqur fikrlar bildirdi.

John Bowlby, bolalardagi attachment (bog'lanish) nazariyasini ishlab chiqqan olimdir. Uning ishlarida xavotirlanishning asosiy sabablaridan biri sifatida ota-onalar bilan bog'lanish va bolalarning bu aloqada qanday tasirlanishlari ko'rsatiladi. Xavotirlanish va qo'rquvning bolalarda xavfli rivojlanish

² Khasnova S.G. Causes of high level of anxiety in preschool children // *ACADÉMICA: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 1, January 2021. – P. 150–157. Impact Factor: 7.492. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00206.8

³ В. И. Долгова. Особенности превентивной работы со страхами дошкольников в условиях дошкольного образовательного учреждения // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2022. № 01. С. 63–80.

⁴ Мазурова Н. В., Трофимова Ю. А. Взаимосвязь тревожности детей дошкольного возраста и стиля семейного воспитания // ВСП. 2013. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimosvyaz-trevozhnosti-detey-doshkolnogo-vozrasta-i-stilya-semeynogo-vozpitaniya> (дата обращения: 26.11.2018).

jarayonlariga olib kelishi haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, bolalarning ota-onalariga nisbatan bog'lanishning turli shakllarini va buning xavotirlanish bilan aloqalarini o'rganishga qaratilgan ishlar olib borgan.⁵

F. Chen, I. Van, Ts. Chjao va S. Vu tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda bolalarda xavotirning rivojlanishi va kuchayishiga shaxsiy omillar, xususan, bolalarning ortib borayotgan tashvish darajasi sabab bo'lishi aniqlangan.⁶ Bu esa ularning xulq-atvorida o'zgarishlarga olib keladi: bola har doim kimdandir madad kutadi, tashqi omillarga qaram bo'ladi, passivlik namoyon qiladi, qiziquvchanlik pasayadi va har qanday noma'lum narsadan qochishga intiladi. Bundan tashqari, bola kayfiyatida tushkunlik, shubhalanish va o'ziga chekinish kuzatilishi, ijtimoiy izolyatsiyaga moyilligi ortishi, travmatik o'tmishga nisbatan haddan tashqari yo'naltirilishi va o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishi mumkin.

O'zbekiston psixologlari, xususan Qodirova va Nuriddinov maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishning paydo bo'lishi ko'pincha oilaviy muhit, tarbiyadagi qat'iylik yoki befarqlik, shuningdek, bolaga nisbatan haddan tashqari talabchanlik bilan bog'liq ekanini ta'kidlaganlar. Ular bolaning xavfsizlik hissi shakllanmagan holatlarda xavotir kuchayishini kuzatganlar. Ular bolalardagi xavotirlanish darajasini aniqlashda turli psixologik metodikalar, jumladan, "Xavotirlanish darajasini aniqlash testi", rasmi testlar, loyihaviy metodlardan foydalanganlar. Bu testlar bolalarning ichki holatini, tashvishlari va qo'rquvlarini aniqlashga yordam bergan. Ularning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalardagi

⁵ Bretherton, Inge. *The Origins of Attachment Theory: John Bowlby and Mary Ainsworth*. – UK: University of Wisconsin, 1992. – P. 759–775.

⁶ Cheng, F., Wang, Y., Zha, J. & Wu, X. (2018). Mothers' negative emotional expression and preschoolers' negative emotional regulation strategies in Beijing, China: The moderating effect of maternal educational attainment. *Child Abuse & Neglect*, 84, pp. 74–81. Available at: <https://doi.org/10.1016/j.chiabu.2018.07.018>

xavotirlanish ko'pincha oilaviy muhit, ota-onaning tarbiyasi va bolalarning ijtimoiy muloqotdagi tajribalariga bog'liq. M.Xoshimova esa bolalarda emotsional rivojlanish va uning ijtimoiy moslashuvdagi ahamiyatini o'rgangan. S.Ubaydullaeva tomonidan bolalarda xavotirlanish belgilarini erta aniqlash metodikasini ishlab chiqqan. T.Abdullaeva maktabgacha yoshdagi bolalarda psixologik portret tuzish uslubiyatini ishlab chiqqan. Z. A. Mahkamova o'z tadqiqotlarida xavotirlanishga moyillikning bolaning shaxsiy tipologik xususiyatlari bilan bog'liqligini o'rgangan. U bolaning xarakteri, oila tarbiyasi va o'qituvchi bilan munosabatlari xavotir darajasiga qanday ta'sir qilishi haqida ilmiy xulosalar bergan. Sh. X. Raximov bolalarning psixik rivojlanishi, ayniqsa emotsional holati, o'z-o'zini anglash, tashvishlanish kabi jihatlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. U pedagogik-psixologik muhit va oilaviy omillarning bolaning xavotir darajasiga ta'siri haqida fikr bildirgan.

Xulosada shuni aytishimiz kerakki, xavotirlanish maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uni erta bosqichda aniqlash va unga mos psixologik yordam ko'rsatish, bolaning ruhiy salomatligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, xavotirlanishga olib keluvchi omillarni erta aniqlash va oilaviy muhitni yaxshilash orqali bolalarda ruhiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

FOYDANAILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Khasnova S.G. Abroad study about the problem of concern in preschool children // *Frontline Social Sciences and History Journal*. ISSN: 2752-7018. 28.02.2022. – P. 60–65. SJIF Impact Factor: 5.376.



2. Khasnova S.G. Causes of high level of anxiety in preschool children // *ACADÉMICA: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 1, January 2021. – P. 150–157. Impact Factor: 7.492. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00206.8

3. В. И. Долгова. Особенности превентивной работы со страхами дошкольников в условиях дошкольного образовательного учреждения // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2022. № 01. С. 63–80.

4. Мазурова Н. В., Трофимова Ю. А. Взаимосвязь тревожности детей дошкольного возраста и стиля семейного воспитания // ВСП. 2013. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimosvyaz-trevozhnosti-deteydoshkolnogo-vozrasta-i-stilya-semeynogo-vozpitaniya> (дата обращения: 26.11.2018).

5. Peretz-Lange, R. & Muentener, P. (2019). “Verbal framing and statistical patterns influence children’s attributions to situational, but not personal, causes for behavior”, *Cognitive Development*, 50, pp. 205–221. Available at: <https://doi.org/10.1016/j.cogdev.2019.05.005>.

6. Cheng, F., Wang, Y., Zha, J. & Wu, X. (2018). Mothers’ negative emotional expression and preschoolers’ negative emotional regulation strategies in Beijing, China: The moderating effect of maternal educational attainment. *Child Abuse & Neglect*, 84, pp. 74–81. Available at: <https://doi.org/10.1016/j.chiabu.2018.07.018>.